

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**

(OTM a'zosi)

2025-yil “  ”



**“KASBIY MAHORAT VA INJENERLIK ISH YURITISH”  
FANINING O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi:** 700 000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
- Ta'lim sohasi:** 720 000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
- Ta'lim yo'nalishi:** 60720700 – Yengil sanoat muhandisligi (yigirish texnologiyasi)

Fan/modul kodi KMIYU2405		Semestr 4	ECTS-kreditlar 5	
Fan/modul turi tanlov		Ta'lim tili O'zbek, Rus		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Kasbiy mahorat va injenerlik ish yuritish	60	90	150
2.	<p><b>I.Fanning mazmuni:</b>  <b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – kasbiy mahorat va injenerlik ish yuritish talabalarga umummuhandislik, umum kasbiy va ixtisoslik fanlaridan olgan nazariy bilimlarini mutaxassis sifatida ishlab chiqarish korxonalari, muassasa, ta'lim va sifat tizimi sohasida ilmiy tadqiqot, loyiha konstruktorlik byurolarida amalda tadbqiq etish shart-sharoitlari, tashkiliy ishlar, ish yuritish tartibi, xizmat va meyoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha tajriba va malaka ko'nikmalarini hosil qilishni o'rgatadi.</p> <p><b>Fanni vazifasi</b> - talaba ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, boshqarish uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat amaliyotlarini o'rgatish hamda real sharoitga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari):</b>  <b>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</b></p> <p><b>1-mavzu. Injenerlik faoliyatida kasbiy mahoratni shakillantirish.</b>  Yosh mutaxassislarni yigirish korxonalariga ishga qabul qilish talablari. Yosh mutaxassislarni yigirish korxonalarida stajirovkasi (kasb mahoratini o'tirish)</p> <p><b>2-mavzu. Ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini tashkil etish.</b>  Ishlab chiqarish rejasi va ko'rsatkichlar tizimi. Korxonalarining ishlab chiqarish quvvati. Ishlab chiqarish rejasini resurslar bilan ta'minlanishi.</p> <p><b>3-mavzu. To'qimachilik korxonalarini boshqarish.</b>  To'qimachilik korxonalarining turlari. To'qimachilik korxonalarini ma'muriy boshqarish. To'qimachilik korxonalarini texnik boshqarish.</p> <p><b>4-mavzu. To'qimachilik korxonalarida bosh injener xizmatini tashkil etish.</b>  Bosh injener xizmatini tashkil etish. Bosh injener xizmati amalga oshiradigan ishlar.</p>			

**5-mavzu. To'qimachilik korxonalarida sex boshlig'i ishini tashkil etish.**

Sex boshligi lavozimiga qo'yilgan talablar. Sex boshlig'ining lavozim vazifalari. Sex boshlig'ining ish grafigi.

**6-mavzu. Smena ustasining ishlab chiqarishda kasbiy faoliyati.**

Smena masterining ishlab chiqarishda tutgan o'rimi. Smena masteri faoliyatini tashkil etish. Smena mastering ish joyi.

**7-mavzu. Smena masterining texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha faoliyati.**

Tevnika xavfsizligi yo'riqnomalari va ularni o'tkazish tartibi. Mehnat muhofazasi bo'yicha smenada olib boriladigan ishlar. Yong'in xavfsizligi bo'yicha smenada olib boriladigan ishlar. Smena masterining favqulotda xolatlarda (baxtsiz hodisalarda) bajaradigan ishlari.

**8-mavzu. Smena ustasining asosiy hujjatlari.**

Smena mastering asosiy hujjatlari. Ish vaqtini hisoblash tabeli. Mehnat muhofazasi kitobi. Ichki nazorat kitobi. Sexlararo nazorat kitobi. Smenani qabul qilish va topshirish kitobi. Topshiriqlarini bajara olmayotganlar bilan ishlash kitobi. Profilaktik ta'mirlashlarni qayd etish kitobi. Ishchi yig'ilishlarning bayonnomalar kitobi. Fuqaro muhofazasi kitobi. Tushuntirish xati jildi. Xizmat yozuvlari jildi.

**9-mavzu. Smena ustasining ish hujjatlarini yuritishi.**

Smena masterining ish hujjatlari. Ish hujjatlarini rasmiylashtirish. Inventarlar va ish qurollarini ta'mirlash buyurtmasi. Texnologik mashinalarda sodir bo'lgan texnik to'xtashlar dalolatnomasi. Texnologik uskunalarning ta'mirlashdan oldingi va keyingi nosozliklar qaydnomasi. Yordamchi ishchilarni komplekslarga birlashtirish bildirgisi. Texnologik intizomni buzgan ishchilarga dalolatnoma tuzish. Ilg'or ishchilarni rag'batlantirish uchun tavsiyanoma.

**10-mavzu. Smena ustasining texnik kengashdagi hisobot.**

Ishchilarning mehnat ta'tili grafigini tuzish va arizalarni rasmiylashtirish. Kasallik varaqalarini nazorat qilish va rasmiylashtirish. Smenaga birlashtirilgan texnologik mashinalarni texnik ko'rikdan o'tkazish va qaydnomalarni rasmiylashtirish.

**11-mavzu. Smena ustasining ishchi xodimlar bilan olib boradigan ishlari.**

Ishchilarning o'z hisobidan ta'til arizasini rasmiylashtirish. Sababsiz ishga chiqmayotgan ishchilarni ishdan bo'shatishni rasmiylashtirish. Ishchilarning korxonaga xizmat transportidan foydalanish arizasini rasmiylashtirish.

**12-mavzu. Smena ustasining texnologiya barqarorlikni ta'minlash bo'yicha olib borilgan ishlari.**

Ishlab chiqarish rejasini bajarish bo'yicha olib borilgan ishlari. Sifatni ta'minlash bo'yicha olib borilgan ishlari. Xom ashyodan foydalanish bo'yicha olib borilgan ishlari.

**13-mavzu. Smena ustasining intizom masalalari bo'yicha faoliyati.**

Yigirish korxonalarining xom ashyo bazasi. Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha olib borilgan ishlari.

**14-mavzu. Smena ustasining ishchilar malakasini oshirish bo'yicha faoliyati.**

Ish usullarini bajarilishi bo'yicha olib borilgan ishlari. Ish qurollari, inventarlar va ishlab chiqarish buyumlari bo'yicha olib borilgan ishlar. Ishlab chiqarish intizomi bo'yicha ishlari. Texnologiya intizomi bo'yicha ishlari.

**15-mavzu. Smena masterining mehnatni tashkil qilishda innovatsion usullardan foydalanishi.**

Smenada master klass mashg'ulotlarini tashkil etish. Jamoada liderlik harakatidan foydalanish. Smena ishchilarini rag'batlantirishda mativatsion omillarni qo'llash.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. TTA operatori faoliyatini tashkil etish.
2. Tarash mashinasi operatori faoliyatini tashkil etish.
3. Piltalash mashinasi operatori faoliyatini tashkil etish.
4. Pilta birlashtirish operatori faoliyatini tashkil etish.
5. Qayta tarash operatori faoliyatini tashkil etish.
6. Piliqlash mashinasi operatori faoliyatini tashkil etish.
7. Halqali yigirish mashinasi operatori faoliyatini tashkil etish.
8. Pnevмомexanik yigirish mashinasi operatori faoliyatini tashkil etish.
9. Qayta o'rash avtomati operatori faoliyatini tashkil etish.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilayotgan mavzulari:

1. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi to'qimachilik korxonalarida injenerlik ishlarini yuritilishi.
2. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi to'qimachilik korxonalaridagi mutaxassislarning lavozim vazifalari.
3. Xususiy, xorijiy va qo'shma korxonalarida mutaxassislarga qo'yilgan talablar.
4. "Uztex Tashkent" QK da kasbiy mahorati va injenerlik ishlarini tashkil etilganligi.
5. "Bakan Textile" QK da kasb mahorati va injenerlik ishlarini tashkil etilganligi.
6. "Agro Teks Alliance" QK da kasb mahorati va injenerlik ishlarini tashkil etilganligi.
7. "Schlafhorst", "Rieter", "Marsoli" firmalarining pnevmomexanik yigirish mashinalari qiyosiy tahlili.
8. Schlafhorst, Muratec firmalarining qayta o'rash avtomati va mashinalari bilan tanishish.
9. O'quv laboratoriyasiga o'rnatilgan uskunalarini kompyuter yordamida boshqarish tartibi bilan tanishish.
10. O'zbekistonda islayotgan korxonalar bo'yicha videofilmlarni ko'rish va taxlil etish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.

#### V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari

##### Talaba bilishi kerak:

- to'qimachilik korxonasi va uning bo'linmalarini ishini tashkil etish va boshqarish;
- sexda bo'lim texnologiy bo'lib ishlash, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish *haqida tasavvurga ega bo'lish;*
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonlari monitoringini va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishni *bilishi va ulardan foydalana olishi;*
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, ularni amalga oshirish, muammolarni ijobiy hal etish uchun umum insoniy qadryatlarni va tashkilotchilik qobiliyatlarini chuqur egallash;
- ishlab chiqarish korxonasida ish yuritish xujjatlarini yuritish olish *ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.*

	<ul style="list-style-type: none"> <li>– to'qimachilik korxonalarida uskunalarni ishlata olish;</li> <li>– tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarish;</li> <li>– korxonada ishchi xodimlarni ishlarini boshqarish va tashkilashtirish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlari;</li> <li>• interfoal keys-stadilar;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash;</li> <li>• video materiyallar tayyorlash;</li> <li>• individual ishlash.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdim qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yusupaliyeva U., Pirmatov A., Aripova Sh. "Kasbiy mahorat va injenerlik ish yuritish" Toshkent. 2023 y – 159 b.</li> <li>2. Pirmatov A. "Yigirish texnologiyasi". Darslik. T., "Bilim va intellektual salohiyati" nashriyoti. 2021 y. – 330 b.</li> <li>3. Пирматов А. "Технология прядения". Учебник. Т., "Ijod-print". 2020 360 с.</li> <li>4. Барахин А.Б. "Дилопроизводство и документоборот". М., 2008.</li> <li>5. М.Аминов ва boshq. "Davlat tilida ish yuritish". Amaliy qo'llanma. T. «O'zbekiston nashriyoti» davlat unitar korxonasi, 2020. - 528 b.</li> <li>6. G'afurov A.G'., Fayzullayev Sh.R. "Texnika va texnologiya yangiliklari". Darslik. "Ijod-print". 2020 y. 160 b.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>7. Малафеев Р.М. Машины текстильного производства. Москва: Машиностроение, МГФ «Знание». 2002. – 496 с.</li> <li>8. Бадалов К.И. Сборник задач по прядению хлопка и химических волокон : учебное пособие для вузов – Москва : МГТУ им. А.Н. Косыгина. 2004. – 448 с.</li> <li>9. Методические указания к практическим занятиям «Технология и оборудование для производства ленть» для студентов специальности 1-50 01 01/ УО «ВГТУ»; сост. д.т.н., проф. Рыклин Д.Б. асс. Чукасова-Ильюшкина Е.В., – Витебск, 2009. – 23 с.</li> </ol>

	<p><b>Axborot manbalari:</b></p> <p>10. <a href="http://www.rieter.com">www.rieter.com</a></p> <p>11. <a href="http://www.marsoli.it">www.marsoli.it</a></p> <p>12. <a href="http://www.smit-textile.com/">http://www.smit-textile.com/</a></p> <p>13. <a href="http://www.staubli.com/Web/Textile/division.nsf">http://www.staubli.com/Web/Textile/division.nsf</a></p> <p>14. <a href="http://titli.uz/index.php/ru/axborotresurslari/1/Darsliklar.html">http://titli.uz/index.php/ru/axborotresurslari/1/Darsliklar.html</a></p> <p>15. <a href="http://standart.gov.uz">http://standart.gov.uz</a></p> <p>16. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a></p>
7.	Fanning o'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2025-yil " <u>27</u> " <u>08</u> dagi " <u>1</u> "-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>Pirmatov A.P. – TTYSI, «Ipak va yigirish texnologiyasi» kafedrası t.f.n., professor</p> <p>Yusupaliyava U. – TTYSI, «Ipak va yigirish texnologiyasi» kafedrası, PhD, dotsent.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Jamilov A.A. – “O‘zbek-Turk Test Markazi” QK bosh mutaxassisi</p> <p>Rasulov H. – TTYSI, «To‘qimachilik matolari texnologiyasi» kafedrası dotsenti, PhD.</p>

**Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.**

No	OTM nomi	QS	THE	Havolalar	Sillabusdagi mavzu nomi	Chet el universiteti Sillabuslari nomi
1	Indian Institute of Technology Delhi	123	151	<a href="https://home.iitd.ac.in/uploads/course-of-study/Courses%20of%20Study%202023-24.pdf">https://home.iitd.ac.in/uploads/course-of-study/Courses%20of%20Study%202023-24.pdf</a>	4, 5, 6, 7 - mavzular to'liq olingan	Professional Practices, Prod & Operations Management in Textile Industr